



HAMZA XAQIDAGI XAQIQATLAR

Farrux Usmonov

Qo'qon davlat muzey qo'riqxonasi Ilmiy hodimi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlari o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti, uning fojeali o'limi, oilasi taqdiri hamda diniy qarashlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Sovet davri mafkuraviy yondashuvlari va mustaqillik davri tadqiqotlari qiyosiy o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Hamza Hakimzoda Niyoziy, jadidchilik, toshbo'ron, sovet mafkurasi, Shohimardon voqealari, jadid adabiyoti.

XX asr boshlari Qo'qon adabiy muxiti o'ziga xos va o'ziga mosligi bilan ajralib turadi. Bu o'ziga xoslik yozuvchi va shoirlardagi demokratik ruxning mavjudligi bilan yodda qoladi. Ushbu davrning eng serqirra ijodkori (boshqa shoir va yozuvchilarga hurmat saqlagan xolda) Hamza Hakimzoda Niyoziy hisoblangan. Maqolamizga 8 bunday nom berishimizga sabab esa, Sovet siyosati asosida yozilgan Hamza tarixi va keyinchalik o'rganilgan xaqqoniy tarix qiyosidir.

1. Hamza Hakimzoda Niyoziyning o'ldirilishi borasidagi fikrlar xilma xilligi.
2. Hamza Hakimzoda Niyoziyning farzandlari taqdiri nima bo'lgan ?
3. Hamza Hakimzoda Niyoziy dindormi yoki daxriymi.

1. Demak birinchi masaladan boshlaymiz.

Ko'pchilikka ma'lumki, xar qanday davrda tarix siyosiy tuzum mafkurasiga bo'ysundiriladi. Biz tadqiq etayotgan masalada ham ushbu xolatni uchratish mumkin. Ya'ni, sovet mafkurasi ta'sirida yozilgan va deyarli 90 yil davomida xalqning ongida ulug' shoir Hamza Hakimzoda Niyoziy bir gurux din vakillari tarafidan toshbo'ron qilib o'ldirilgan degan fikr shakllangan. Aslida ham o'ldirilish toshbo'ron bilan amalga oshirilganmi, yoki boshqa yo'l bilanmi? Hamza Hakimzoda Niyoziy jismanan yo'q qilish dindor axoli vakillariga kerak bo'lganmi, yoki Sovet siyosiy mafkurasigami.

Mashxur Hamzashunos adib Nabijon Boqiyning 2019 yilda “Adabiyot” gazetasida bosilgan “Navro'zdan uch kun oldin Toshbo'ron” nomli maqolasi va 2022 yilda bosib chiqarilgan “Qizil toshbo'ron” asarlarida ushbu xolat bo'yicha o'rganishlar natijasi bayon qilingan.

“Qizil toshbo'ron” kitobining 499 betida yozilishiga ko'ra Hamza Hakimzoda Niyoziy hech qanday toshbo'ron qilinmagan, uni mast alast olomon o'rta olib kaltaklaydi, pichoqlab o'ldiradi, so'ngra yerda yotgan jasadni yirik toshlar bilan majaqlaydi. “Adabiyot” gazetasida bosilgan “Navro'zdan uch kun oldin Toshbo'ron” nomli maqolada Hamzaga



birinchi bo'lib pichoq bilan tashlangan shaxs sifatida Xoldor Rustamov ko'rsatilgan. Hamza Hakimzodaning o'ldirilishida aybdor sifatidagi bir kishi bor. Bu inson Xamroqul Tursunqulov xisoblanadi. Bu shaxs Hamza o'limidan so'ng Regar (Tojikiston) xududlariga surgan qilingan, lekin Usmon Yusupov davrida kolxoz raisi sifatida 3 marta Sotsialistik mexnat qaxramoni unvonini olgan. Bu Hamza Hakimzoda Niyozini jismonan yo'q qilish sovet siyosiy mafkurasiga kerak bo'lganini ko'rsatadi.

2. **Hamza Hakimzoda Niyozining oilasi, uning farzandlari xaqida** ma'lumotlar u qadar ko'p emasligini inobatga olgan xolda, baxoli qudrat ma'lumot berishga xarakat qilamiz.

Hamza Hakimzoda Niyozining to'ng'ich farzandlari qiz farzand bo'lganligi xaqida shoirning o'z esdaliklarida, Nabijon Boqiy ma'lumotlarida va Zarifa Saidnosir qizining yozib ketgan esdaliklaridan bilib olish mumkin. Ushbu qiz farzandning ismi Savdaxon bo'lgan va bu chaqaloq 1915 yfevral oyida dunyoga kelgan. Lekin, tabiatan nosog'lom bo'lganmi, yoki boshqa sabab bilanmi, Savdaxon o'sha yilning iyun' oyida vafot etadi.

Hamza Hakimzoda Niyozining keyingi farzandi esa o'g'il farzand bo'lgan. Lekin, ushbu farzand qaysi sanada tug'ilganligi xaqida ma'lumot topilmadi. Bu o'g'il farzandga G'iyos deb ism qo'yishgan. Zarifa Saidnosir qizining yozib ketgan esdaliklarida esa bu bolaga Ilyos deb ism qo'yilgani aytib o'tiladi. Bu mavxumlik yana davom etib, G'iyos (yoki Ilyos) qaerdaligi ma'lum emas. Ushbu farzandlar Savdaxon va G'iyosning onalari asli millati rus, Qo'qon shaxrida tug'ilgan va dini islomni qabul qilgan Aksinya Platonovna Uvarova xisoblanadi.

Hamza Hakimzoda Niyozining navbatdagi farzandlari ham o'g'il farzand bo'lgan.

Bu bolakayga Abbosxon deb ism qo'yilgan. Abbos Hamza o'ldirilgan paytda otasi bilan Shoximardonda bo'lgan. O'sha mash'um voqealardan so'ng Abbos Qo'qon shaxriga ammasi Achaxon Niyozovanning oldiga qaytib keladi va ammasi qaramog'iga olinadi. Shaxarda ulg'ayadi, uylanadi. Abbosning ayolini ismi Hanifa bo'lgan. Abbos va Hanifa farzand ko'rar chog'ida II jaxon urushi boshlangan va 1943 yilda Abbos urushga olib ketilgan. Aynan shu yilda Abbos xalok bo'lganligi xaqida frontdan “Qora xat” kelgan. Yana bir yangilik, 1943 yilda tavallud topgan Hamzahon (Abbos va Hanifaning farzandi) ulug' shoir, aktyor, dramaturg, musiqashunos, o'qituvchi va jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyozining nabirasi xisoblanadi.

3. **Hamza Hakimzoda Niyoziy dindormi yoki ...**

Aynan ushbu masalada ko'plab qarama-qarshi fikrlar, turli dunyoqarashlar mavjud bo'lib, xali xamon bir fikrga kelinmagan. Lekin shuni aniq bilamizki, ilk jadidlardan hisoblanmish Hamza Hakimzoda Niyoziy dini islomga jadidlik nuqtai nazaridan, ya'ni yangicha fikrlar nuqtai nazaridan yondoshgan. Hamza dinsiz deganlarga ushbu faktlarni ko'rsatib o'tamizki, balki Hamza Hakimzoda Niyoziy dinsiz deganlar o'z fikrlarini



o'zgartirib qolishar. Dastavval Hamza yoshlik, o'spirinlik paytlaridayoq eski o'zbek tilini, arab tilini mukammal bilgani, Quroni Karimni yod bilganini eslatib o'tish lozim. Yana bitta fakt Hamza qurgan nikox bilan bog'liq. Hamza Aksinya Platonovna Uvarovani o'z nikoxiga olganda islomga olib kirgan (Ayolga Oyshaxon deb islomiy ism bergan). Bundan tashqari Hamza Hakimzoda Niyoziy 23 yoshida muborak Xaj amallarini ado qilib kelgan. Paranj masalasida tushunmovchiliklar mavjud. Aksariyat kishilarda Hamza Hakimzoda Niyoziyning shaxsiy bosimi ostida parnji tashlash marosimi o'tkazilgan degan fikrda. Lekin o'sha davr tarixi o'qib ko'rilsa, 1927 yilda “Xujum” xarakati boshlangan. Ushbu xarakatning tub mazmunlaridan biri – aynan parnji. Quyidagi sheriy to'rtlikda Hamza Hakimzoda Niyoziyning parnji tashlanishga qarshi ekanligi aks etadi.

Keling do'stlar, qiyomat kun yaqin bo'ldi,

Mart oyida xotinlar yuz ochar emish.

Tavba denglar o'shal kuni mo'min qullar,

Ko'zlaridan qaro qonlar sochar emish.

Shuningdek, Shoximardon fojealari yuz bermasdan oldin Hamza qabristondagi shirk xolatlari (xo'kiz dumlarni sotilishi, daraxtlarga mato bog'laash va boshqalarni) ni tanqid qilgan.

Xulosa

Hamza Hakimzoda Niyoziy shaxsiyati va faoliyatini biryoqlama talqin qilish ilmiy haqiqatga ziddir. Uning o'limi, oilasi taqdiri va diniy qarashlari masalasida manbalarni qiyosiy tahlil qilish orqali tarixiy adolatni tiklash mumkin. Mustaqillik davri tadqiqotlari bu borada yangi qarashlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boqiy N. **Qizil toshbo'ron**. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
2. Boqiy N. **Navro'zdan uch kun oldin Toshbo'ron // Adabiyot gazetasi**. – Toshkent, 2019.
3. Saidnosir qizi Zarifa. **Esdaliklar** (Hamza Hakimzoda Niyoziy oilasi haqida xotiralar).
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. **Tanlangan asarlar**. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
5. Karimov N. **Jadidchilik harakati tarixi**. – Toshkent: O'zbekiston, 2005.
6. Qosimov B. **O'zbek jadid adabiyoti**. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
8. Hamza Hakimzoda Niyoziy haqida zamonaviy tadqiqotlar to'plami. – Toshkent, turli yillar.